



CANADA

INTERNATIONAL SCIENTIFIC
ONLINE CONFERENCE

INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION



**23 FEBRUARY
2023 YEAR**



CANADA, OTTAWA



ISOC
INTERNATIONAL
SCIENTIFIC
ONLINE
CONFERENCES



**INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND
RESEARCH IN EDUCATION**
International scientific-online conference

Part 14
February 23rd
COLLECTIONS OF SCIENTIFIC WORKS

CANADA 2023



INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION: a collection scientific works of the International scientific online conference (23rd February, 2023) – Canada, Ottawa : "CESS", 2023. Part 14–342 p.

Chief editor:

Candra zonyfar - PhD Universitas Buana Perjuangan Karawang, Indonesia
Sunmoon University, South Korea.

Editorial board:

Martha Merrill - PhD Kent State University, USA

David Pearce - ScD Washington, D.C., USA

Emma Sabzalieva - PhD Toronto, Canada

Languages of publication: русский, english, казахша, o'zbek, limba română, кыргыз тили, Հայերեն....

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference

"INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION".

Which took place in Ottawa on February 23, 2023.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.

© "CESS", 2023
© Authors, 2023

<p>Zakhidov Khosim Akilovich Saitkulov Foziljon Ergashevich <i>BIOLOGICAL ACTIVITY OF THE COORDINATING COMPOUND OF QINAZOLIN-4-ONE</i></p>	
<p>Qulmamatova Barno Omonovna Boymamatova Rayhona Abduhalil qizi Avazova Parvinaxon Zokir qizi Egamnazarova Noila Olimjon qizi <i>MONOPOLIYAGA QARSHI RAQOBAT</i></p>	119
<p>Бузрукзода Ж.Д Исхакова З.Ш Нарзиева Д.Б Исхакова Ф.Ш <i>РОЛЬ ГИДРОКСИАПАТИТА И ЭЛЛАГОВОЙ КИСЛОТЫ В ОСТЕОГЕНЕЗЕ</i></p>	125
<p>Пулатова Барно Журахановна Мусурманов Фазлиддин Исамиддинович <i>СТУПЕНЧАТОЕ ПРИМЕНЕНИЕ ЭУБИОТИКА ПРИ ЛЕЧЕНИИ ФЛЕГМОН ЧЕЛЮСТНО-ЛИЦЕВОЙ ОБЛАСТИ НА ФОНЕ ДИСБАКТЕРИОЗА КИШЕЧНИКА</i></p>	134
<p>Tursunova Mavlyuda Ruziyevna <i>UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA MATEMATIKA O'QITISH METODIKASI</i></p>	144
<p>Jamolov Azizjon Axmatovich Abduraxmonov Bexruz Muhammadovich <i>AXLOQIY-RUHIY TA'MINOTNI TASHKILLASHTIRISHDA XORIJ TAJRIBASI</i></p>	148
<p>Нурматов Отабек Абдурашидович Файзиев Хасан Фахриддинович Садуллаев Махмуд Мусурмон угли <i>«ИЗУЧЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ КОМБИНИРОВАННОГО ЛЕЧЕНИЯ ДИАБЕТИЧЕСКОЙ ДИСЛИПИДЕМИИ РОЗУВАСТАТИНОМ И ЭЗЕТИМИБОМ У БОЛЬНЫХ САХАРНЫМ ДИАБЕТОМ ТИПА 2»</i></p>	152
<p>Jonibekova Moldir Erlan qizi Allaberdiyeva Mushtariy Alijon qizi Xidirova Shahlo Shavkatovna <i>YOSHLARNING ILMIY VA MA'NAVIY SALOHIYATINI OSHIRISHDA ADABIYOTNING TAXLILY O'RNI</i></p>	159
<p>Urazova Guli Uringaliyevna <i>3-SINF ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI FANIDAGI "JAMOAT TRANSPORTI" MAVZUSINI O'TISHDA ZAMONAVIY O'QUV-DIDAKTIK VOSITALAR ORQALI DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISH</i></p>	163
<p>Akramov Doston Faxriddin o'g'li Ergashev Avaz Amon o'g'li <i>TURKISTONNING MAORIFIDAGI O'ZGARISHLAR</i></p>	167

TURKISTONNING MAORIFIDAGI O'ZGARISHLAR

Akramov Doston Faxriddin o'g'li

Ergashev Avaz Amon o'g'li

Buxoro davlat universiteti

Jahon tarixi kafedrasi o'qituvchisi

Tel: +998(91)4425459.

Annotatsiya. *Turkistonning ruslar tomonidan bosib olgach, u yerdagi siyosiy jarayonlar, uning ta'sirida mavjud maorif tizimiga, shu jumladan, ta'lim va maorifda o'zgarishlar va hukumatning ularga munosabati hamda maktablar holati va uning yetkazgan salbiy oqibatlari haqida tilga olingan.*

ИЗМЕНЕНИЯ В ОБРАЗОВАНИИ ТУРКЕСТАНА

Абстрактный. *После оккупации Туркестана русскими упоминались политические процессы, происходящие там, их влияние на существующую систему образования, в том числе изменения в образовании и образовании и реакция на них правительства, состояние школ и его негативные последствия.*

CHANGES IN THE EDUCATION OF TURKISTAN

Abstract. *After the occupation of Turkestan by the Russians, the political processes there, its influence on the existing educational system, including changes in education and education and the government's response to them, and the state of schools and its negative consequences, were mentioned.*

Kalit so'zlar. *Ziyoli, maorif, kurs, ruslashtirish, gimnaziya, rus-tuzem, loyiha, qorixona, madrasa, yangi usul.*

Ключевые слова. *Интеллектуальный, учебный, курс, русификация, гимназия, русскоязычная система, проект, монастырь, медресе, новый метод.*

Key words. *Intellectual, educational, course, Russification, gymnasium, Russian-system, project, monastery, madrasa, new method.*

Ezgu g'oya va vasiyatlarini asosida ta'lim va tarbiya sohasidagi tub islohotlarni yuksak bosqichga ko'tarish, mamlakatimizning taqdiri va kelajagi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan yangi avlod kadrlarini voyaga yetkazishga qaratilgan ishlarni izchil davom ettirish hammamizning nafaqat vazifamiz, balki muqaddas burchimiz bo'lib, biz bu yo'lda birinchi navbatda siz, azizlarga, sizlarning bilim va malakangiz, tajriba va mahoratingizga tayanamiz[1].

XIX asrning ikkinchi yarmida Turkiston xalqlari hayotida Rossiya imperiyasining harbiy yurishlari natijasida o'lkaning zabt etilishi, yangi hokimiyat o'rnatilishi bilan aholi turmush tarzi asta-sekin o'zgarib, yangi huquqiy, siyosiy, ma'naviy va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar girdobiga tortildi. O'rta Osiyo xalqlarini Rossiya imperiyasiga bo'ysundirishda o'lkada imperiya boshqaruv tizimining joriy etilishi eng birinchi vazifalardan biri edi. Undan tashqari, o'lkani iqtisodiy jihatdan o'zlashtirish maqsadida tashkil etilgan turli shakldagi korxonalar faoliyati uchun rus tilini va qator malakalarga ega bo'lgan mutaxassislar talab etilardi.

Hozirgi kunda eng asosiy masalalardan biri yoshlarga ta'lim-tarbiya berish sanaladi. Inson tug'ilgandan buyon urf-odat va an'analarni eshitib katta bo'ladi. Shu bois, uning atrof-muhit bilan aloqasini e'tiborga olib, maktablarda asriy saqlanib qolgan: arab tili va imlosini hamda diniy qadriyatlarni zamonaviy baynalminal tuyg'ular bilan tarbiyalash lozim sanaladi [2, B.3].

N. Qodirov tashkil etilgan rus ta'lim muassasalaridan ko'zlangan maqsadlardan biri talab etilgan mutaxassislarni tayyorlash ham edi. Turkistonda o'z hokimiyatini mustahkamlash maqsadida mustamlakachi hukumat "ruslashtirish" siyosatini olib bordi. Bu siyosatning bir yo'nalishi sifatida o'lkada rus ta'lim tizimining joriy etilishi hokimiyat vakillari oldida turgan muhim vazifaga aylandi. Rus ta'lim muassasalari yordamida mahalliy aholi vakillaridan kelajakda mustamlaka tuzum siyosatiga xizmat qiluvchi sodiq kishilarni tarbiyalash rejalashtirilgan edi. Eng avvalo, o'lkada rus ta'lim muassasalari tizimini shakllantirish hamda mahalliy aholi orasida rus tili va madaniyatini tarqatish ta'lim islohotlaridan ko'zlangan birinchi darajali maqsad sifatida belgilangan. Biroq o'lkada asrlar davomida faoliyat yuritayotgan an'anaviy maktab va madrasalar bunga to'sqinlik qilmoqda edi. Imperiyani yangi etnomadaniy xilma-xillikka ega bo'lgan fuqarolarini yagona davlat miqyosida birlashtirish, imperiyani mustamlakachilik manfaatlarini ilgari surish, etnik munosabatlarni tartibga solish, zamonaviylashtirish siyosati sur'atini tezlashtirish, islom muhitiga Rossiya ta'limi elementlarini singdirishda Rossiya imperiyasi Xalq maorifi vazirligining 1870 yilda qabul qilingan O'quv bo'limini tashkil etish bo'yicha Loyihasi ustuvor ahamiyatga ega bo'ldi. Rossiya imperiyasi hukmronligi davrida o'lkada yangi tipdagi rus ta'lim tizimini yaratish bir necha bosqichda amalga oshirildi. Jumladan, ta'lim sohasidagi ishlarning birinchi bosqichi 1867 yildan to XIX asrning 80-yillarigacha bo'lgan davrni o'z ichiga olib, imperiya ma'muriyati tomonidan o'lkadagi rusiyzabon aholi bolalari bilan birga mahalliy aholi bolalari ta'lim olishi mumkin bo'lgan rus maktablari tashkil etilishi bilan birgalikda mahalliy ta'lim tizimiga nisbatan "mensimaslik" siyosati qo'llanilgan. Ikkinchi bosqich XIX asr 80-yillar o'rtalaridan XX asr boshigacha bo'lgan davrni o'z ichiga olgan. Bu davrda ma'lum ma'noda mahalliy

aholi e'tiborini qozona olgan rus-tuzem maktablari tashkil etilgan. Ulardagi ta'lim usullari tub erli aholi ta'lim an'alariga yaqinlashtirildi. Shu bilan birga, o'rta ta'lim va kasb-hunar ta'limi muassasalari tashkil etildi. Bu davrda muvaffaqiyatsiz bo'lsa-da, musulmon ta'lim muassasalari ustidan qat'iy nazorat o'rnatishga yo'naltirilgan tadbirlar amalga oshirilgan. Uchinchi bosqich XX asr boshidan 1917 yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga olib, bu davrda mahalliy va rus ma'rifatparvarlari tomonidan o'lkada ta'lim tizimlarini keng miqyosdagi isloh etish, ta'lim va tarbiya berish usullarini zamonaviylashtirishga qaratilgan loyiha va takliflar ilgari surildi. Undan tashqari, XIX asr oxirlaridan o'lka bo'ylab keng tarqala boshlangan jadid maktablariga nisbatan ular mavqei va ta'sirini kengaymasligiga qaratilgan qonuniy xujjatlar ishlab chiqildi va qator cheklovlar joriy etildi. Boshlang'ich va o'rta ta'lim muassasalari tarmog'i kengayishi bilan birga ulardagi ta'lim dasturlari ham imperiya manfaatlariga mos ravishda takomillashtirilib borildi. Jadidlar tomonidan tashkil etilgan "yangi usul" maktablari milliy ta'lim tizimini tubdan isloh qilishga qaratilgan ilk qadamlar bo'lishiga qaramasdan, imperiyaning o'lkadagi mustamlakachilik siyosatiga qarshi xavf tug'dira oldi. Imperiya ma'muriyati tomonidan mahalliy ma'rifatparvar ziyolilar faoliyati tazyiq va siquvlar ostiga olindi. Turkiston o'lkasi bosib olinishi bilan bu erga Rossiya markaziy hududlaridan harbiylar, injenerlar, vrachlar, turli soha bo'yicha mansabdorlar va ularning oilalari ko'chib kela boshladi. Ular uchun yangi shaharlar barpo etildi, mavjudlarida esa rus tilida so'zlashuvchi aholi yashashi ko'zda tutilgan yangi shahar qismlari ajratildi. Birinchi navbatda ushbu oila farzandlari, keyinchalik mahalliy aholi bolalari uchun rus ta'lim muassasalarini tashkil etish rejalashtirildi. 1869-1870 yillarda Xalq maorifi vaziri D.A.Tolstoy rahbarligida Volgabo'yi, Ural, Sibir va Qrim aholisi orasida boshlang'ich maktablartizimini kengaytirish loyihasini ishlab chiqish jarayonida rusbo'lmagan xalqlar ta'limiga nisbatan maorif sohasidagi siyosatning asosiy g'oyalari shakllantirildi. Unda: "Bizning Vatanimiz sarhadlarida yashovchi barcha g'ayrita'balarni o'qitishdan asosiy maqsad, shubhasiz, ularni ruslashtirish va rus xalqi bilan aralashishidir", [3] – deb qayd etilgan edi. Ya'ni imperiya hukumati rus ta'lim muassasalarini tashkil etish va ularga mahalliy aholi vakillarini jalb etish orqali kelajakda tub erli xalqlarni rus hukumatiga g'oyaviy jihatdan to'la bo'ysundirishga erishishni ko'zlar edi. 1870 yil martda Maorif vazirligi ishlab chiqqan loyiha asosida "Rossiyada istiqomat qiluvchi g'ayrita'balar ta'limi uchun tadbirlar to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Vazirlikning ushbu tartiblari 1870 yilda general-gubernator K.P.Kaufman buyrug'iga binoan tashkil etilgan maxsus komissiya loyihasida o'z aksini topdi. 1870 yil 26 martdagi Rossiya imperiya Xalq maorifi vazirining hukumatga tasdiqlatgan ma'ruzasida mavjud va kelajakda

tashkil etiladigan maktablar va madrasalarda musulmon jamoalari hisobidan rus sinflarini tashkil etish zarurligi ta'kidlangan taklif amaliyotga tadbiiq etilmagan[4]. Mustamlakachi hukumatning ta'lim siyosatida belgilangan maqsadlar rasman e'lon qilinib, musulmonlarning diniy masalalariga qat'iy aralashmaslik tamoyiliga amal qilingan holda amalga oshirila boshlandi. Bu hukumatning musulmon diniy ta'lim muassasalar nazoratini amalga oshirishga bo'lgan intilishlaridan tashqari, o'lkada pravoslav dinini targ'ib etishning har qanday usul va vositalaridan voz kechishini anglatar edi.

O. Сумарокова imperiya barqarorligi omili sifatida qaralgan o'zgalarning milliy va diniy qadriyatlarini namoyishkorona hurmat qilish siyosatini Rossiya Buyuk Britaniyadan o'zlashtirgan[5]. Shunga qaramay, mazkur siyosat qo'llanishi oqibatida mintaqada rus ta'lim tizimlarini targ'ib qilish muvaffaqiyatsizliklarga uchradi. Chunki an'anaviy ta'lim o'lka xalqlari diniy hayoti bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Dinning daxlsizligi va mahalliy ta'lim fanlari asosida diniy bilimlarning mujassamlashganligi mahalliy xalqlar ta'lim an'analari yot bo'lgan rus ta'lim maskanlariga tub yerli xalqlar vakillarini jalb etish imkoniyatini kamaytirardi. Kundan –kunga ehtiyoj oshib borishi natijasida boshlang'ich rus ta'lim muassasalariga bo'lgan talab oshib borar va shu davrgacha ham boshlang'ich rus maktablari mavjud bo'lib, ular muayyan rejalarsiz, asosan, rus aholisining ta'limga bo'lgan kechiktirib bo'lmas talablarini qondirishga qaratilgan edi[6]. Bu davrda podsho ma'muriyati o'lkada asrlar davomida faoliyat yuritib kelayotgan an'anaviy ta'lim muassasalariga nisbatan o'z munosabatini shakllantirdi: podsho ma'muriyati ta'lim-tarbiya orqali madaniyati va diniy e'tiqodi jihatidan bir-biriga yot bo'lgan rus va mahalliy xalqlarning o'zaro yaqinlashuvi hamda kelajakda tub erli xalqlarning rus madaniyati ta'siriga tushib qolishiga umid bog'lagan. 1873 yilda K.P.Kaufman tomonidan podsho hokimiyatiga taqdim etilgan "Turkiston o'lkasida o'quv bo'limini va xalq ta'limini tashkil etish" loyihasi ta'lim islohoti yo'lida qo'yilgan jiddiy qadamlarning boshlanishi edi. Mazkur loyihada ham o'lkada joriy etiladigan ta'lim tizimi rus manfaatlari asosida, diniy xarakterga ega bo'lmagan holda bo'lishi kerakligi ta'kidlanadi. Rus maktablari to'g'risida o'z mulohazalarini bayon etar ekan K.P.Kaufman: "Turkiston yoshlarining rus bolalari bilan birga o'qitilishi, g'ayrita'ba bolalar fikrlashidagi farqni yo'qotgan holda, bosib olingan o'lka assimilyasiyalashuvida ijobiy natijalarga olib keladi", – degan fikrlarni o'rtaq tashlagan edi. O'lkadagi o'troq va ko'chmanchilarning turmush – tarzi va dunyoqarashlarda mavjud farqni anglagan Kaufman, o'qitishda ko'chmanchilarni o'troq aholidan "ajratish"ni maqsadga muvofiq deb hisoblagan[7]. Harbiy vazir D.A.Milyutinga loyihani taqdim etarkan K.P.Kaufman Turkiston o'lkasini uch million aholisidan 2/3

qismi ko'chmanchilar ekani va bu xalqlar ruslar bilan yaqinlashishi ehtimoli yuqoriligini ta'kidlab: "Biz, endi, ma'lum kelajakka qoldirmasdan ular orasida rus fuqaroligini tarqatishimiz kerak va bizning zimmamizda turgan ko'chmanchilarni madaniy xalqlar oilasiga kiritishdek insoniy burchni bajarishimiz, ikkinchidan, ko'chmanchilar turmushiga singib borayotgan islom ta'siridan ularni ajratib, o'zimizga yaqinlashtirishimiz mumkin"[8], – deb yozgan edi. Turkistonda tashkil etiladigan maktablar oldiga quyidagi vazifalarni qo'ygan edi:

1. Mahalliy aholi diniy qadriyatlarini kamsitmagan holda Rossiya imperiyasi hukmron doirasi manfaatlariga to'la mos ravishda ta'limni olib borish;

2. Ta'lim sohasidagi siyosatni hukmron mafkura talablariga moslashtirish;

3. An'anaviy ta'lim ahamiyatini pasaytirish orqali mahalliy aholi dunyoqarashiga rus madaniyatini singdirish.

1873 yilgi loyihaning g'oyaviy asosida imperiya tomonidan mahalliy aholiga nisbatan qo'llaniladigan madaniy siyosat yashiringan edi. Unda keltirilgan takliflar o'lkadagi podsho ma'muriyatini tub joy xalqlarini boshqarish va itoat ettirish borasida strategik siyosiy maqsadlarini aniqlab olganligini ko'rsatib berdi. Xususan, o'lka ma'muriyati ta'lim siyosati orqali mahalliy aholi orasida an'anaviy ta'limning ahamiyatini pasaytirish, rus tili va madaniyatini singdirish, ko'chmanchi xalqlarni o'troq aholidan ajratgan holda rus xalqi bilan yaqinlashuviga erishish maqsadlarini amalga oshirishni rejalashtirgan edi. 1873 yilda taqdim etilgan maxsus loyiha Harbiy vazirlik tomonidan tasdiqlandi, Maorif vaziri D.A.Tolstoy esa gimnaziya va o'qituvchilik seminariyasi ochilishini ma'qullasada, ovullarda savodxonlik maktablari ochilishiga qarshi chiqdi. Moliya vaziri M.X.Reytern o'qituvchilar seminariyasining ochilishi vaqtli deb, uni davlat xazinasidan moliyalashtirishga qarshi chiqdi va umuman Turkiston o'lkasidagi xalq ta'limini vaqflar hisobidan moliyalashtirishni taklif etdi. Bunda M.X.Reytern "xalq ta'limi xalqning ishi"[9] degan fikrni ilgari surdi. Mazkur ta'lim muassasalari va maorifga xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar ta'sirida aholi orasida o'zlarining g'oya va qarashlarini singdirib bordilar[10]. 1886-yilda "Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risida nizom"da vaqf yerlarini ikkiga bo'lib, aholi yashaydigan va yashamaydigan yerlarga bo'linadi. Aholi yashaydigan yerlardan yer solig'i olinishi belgilanib, aholi yashamaydigan maktab va qorixonalar yerlaridan soliq to'lanmasligi qayd qilinadi[11, B. 37].

Xullas, ma'lum bir davrda bu iqtidorlarni bug'ish uchun ham taqiblar kuchaytirildi, ammo aholining asrlar davomida yaratgan ma'naviy boyliklari eskirmadi, yo'qolmadi va o'z ijobiy belgisini ko'rsatib insonparvarlik tamoyilida natijalar ko'rsatdi[12]. Bu davrda yashagan chinakam istedod egalarini ko'rsatish va qum

zarralarida burkangan ma'naviy ajdodlar merosini qayta tiklash hamda ularning nomini oltin zarvaraqa bitish uchun ko'pgina olimlar hissa qo'shishgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. AKRAMOV D.F. Sovetlar hukmronligi davrida alifboning o'zgartirilishi // Фундаментал тадқиқотлар. № 1 (2023) Б. 103-107.
2. Azam A. Yoshlarga sog'lom mafkuraviy tarbiya beraylik. / Maorif va o'qituvchi. 1929-yil. 6-son. 3-bet.
3. Qodirov N. Turkiston o'lkasida rus ta'lim muassasalari tarixi. –Т.: 2013. 46b.
4. Граменицкий С.М. Положение инородческого образования в Сырдарьинской области. – Т., 1916. – С. 40.
5. Сумарокова О.Л. История Российского образования в Киргизии и роль в нем русского языка (1860-е – 1917 гг.). Автореф. дис. ... канд. ист. наук. – Бишкек, 2009.
6. Граменицкий С.М. Положение инородческого образования в Сыр-Дарьинской области. – Ташкент, 1916. –С. 3.
7. Граменицкий С.М. Очерк развития народного образования в Туркестанском крае. – Ташкент, 1896. – С. 5.
8. Qodirov N. Turkiston o'lkasida rus ta'lim muassasalari tarixi. –Т.: 2013. 49b.
9. История России XIX – начала XX века. Учебник. – Москва; «Проспект», 2006. – С. 480.
10. Doston F.Akramov, THE ROLE OF WOMEN IN EDUCATION IN UZBEKISTAN DURING THE SOVIET PERIOD. Look to the past. 2022, vol. 5, issue 4, pp.
11. Alimov I. Qo'qon xonligi madrasalar va maktab tarixi. –Т. “Fan”. 2017.
12. Akramov D. A Stat: O'zbekistonda Sovet hokimiyati yuritgan madaniy siyosati //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 6. – №. 2.
13. Akramov D. ZAMON TANLAMAS MA'RIFAT //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
14. Akramov D. Ta'limning dolzarblik xususiyati //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
15. Akramov D. TALIMNING HOZIRGI KUNDAGI ORNI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
16. Akramov D. TARIX TADQIQOTLARIDA YANGI TECHNOLOGIYALARNING UYG'UNLASHISHI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.

17. Akramov D. SOVET HOKIMIYATINING SAVODSIZLIKKA QARSHI KURASHI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
18. Akramov D. Sovet boshqaruvi davrida O'zbekiston maorifida ijtimoiy masala //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 16. – №. 16.
19. Akramov D. SOVET BOSHQARUVI DAVRIDA O'ZBEKISTON MAORIFIDA XOTINQIZLARNING O'RNI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
20. Akramov D. Вухоро Халқ Совет Respublikasi maorifi //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.